Qabul qilindi: 13-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 15-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 17-noyabr 2026-yil

MADANIY-PRAGMATIK INTEGRATSIYA ASOSIDA BÖLAJAK SURDOTARJIMONLARNING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI ŞAKLLANTIRIŞNING INNOVATSION PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Abdullayeva Nargiza Öktamovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti Jismoniy tarbiya va sport fakulteti surdotarjimoni

E-mail: abdullayevanargiza1114@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda bölajak surdotarjimonlarning pragmatik kompetensiyasini şakllantirişning pedagogik şart-şaroitlari yoritilgan. Yettita innovatsion ta’lim texnologiyasining samaradorligi qiyosiy tahlil qilingan, pragmatik kompetensiyani şakllantiriş texnologiyasi, tört komponentli pedagogik model hamda beş mezonli diagnostika tizimi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit sözlar: surdotarjimon, pragmatik kompetensiya, imo-işora tili, deaf madaniyati, madaniy-pragmatik integratsiya, innovatsion texnologiya, pedagogik model, diagnostika.

Аннотация. В тезисах освещены педагогические условия формирования прагматической компетенции будущих сурдопереводчиков. Проведён сравнительный анализ эффективности семи инновационных образовательных технологий. Научно обоснованы технология формирования прагматической компетенции, четырёхкомпонентная педагогическая модель и пятикритериальная система диагностики.

Ключевые слова: сурдопереводчик, прагматическая компетенция, жестовый язык, культура глухих, культурно-прагматическая интеграция, инновационная технология, педагогическая модель, диагностика.

Abstract. This paper examines the pedagogical conditions for developing the pragmatic competence of future sign language interpreters. The effectiveness of seven

innovative educational technologies is compared. A technology for developing pragmatic competence, a four-component pedagogical model and a five-criterion diagnostic system are given a scientific basis.

Keywords: sign language interpreter, pragmatic competence, sign language, Deaf culture, cultural-pragmatic integration, innovative technology, pedagogical model, diagnostics.

KIRIŞ

Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni rivojlantiriş va eşitişda muammosi bölgan şaxslarning jamiyat hayotida teng iştirokini ta’minlaş davlat siyosatining ustuvor yönalişlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda malakali surdotarjimonlarga bölgan ehtiyoj ortib bormoqda. Surdotarjimon faoliyati sözlarni bir tildan ikkinçisiga ögiriş bilan çeklanmaydi: u muloqot iştirokçisining niyatini, vaziyat kontekstini va madaniy noziklikiarni töğri anglab, ularni boşqa kommunikativ tizimda adekvat ifodalaşi lozim. Aynan şu qobiliyat pragmatik kompetensiya sifatida namoyon böladi.

Imo-işora tili öz tabiatiga köra vizual-fazoviy til bölgani sababli, an’anaviy oğzaki öqitiş usullari bu sohada yetarli samara bermaydi. Talaba surdotarjimonlik könikmalarini avvalo kuzatiş, taqlid qiliş, amaliy maşq va refleksiya orqali egallaydi. Şu bilan birga, Özbekistonda surdotarjimonlar tayyorlaş böyiça tizimli tadqiqotlar hali yetarli emas, mavjud imtihon tizimi esa asosan lingvistik bilimlarni tekşirişga qaratilgan bölib, pragmatik va madaniy jihatlar yetarliça baholanmaydi. , ÖzMPU, ÇDPU va QDPUda ötkazilgan sörovnoma natijalariga köra, surdotarjimonlik yönalişi talabalarining 73,2 foizi eşitişda muammosi bölgan insonlar bilan bevosita muloqotni eng qimmatli öquv tajribasi deb baholagan, biroq ularning atigi 31,7 foizi bunday imkoniyatga muntazam ega bölgan. Uşbu holat mavzuning dolzarbligini körsatadi.

Tadqiqotning maqsadi bölajak surdotarjimonlarning pragmatik kompetensiyasini şakllantirişning innovatsion texnologiyalari, pedagogik modeli va diagnostika tizimini işlab çiqiş hamda ilmiy asoslaşdan iborat.

1. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining samaradorligi. Xalqaro tajriba, xususan

R.Leeson (Buyuk Britaniya), D.Cokely (AQŞ) va C.Gish (Kanada) tadqiqotlari surdotarjimonlarni tayyorlaşda simulyatsiya, rol öyini va refleksiv öqitiş usullari an’anaviy dars şakliga nisbatan ança samarali ekanini körsatgan [3]. Real kasbiy vaziyatlarga yaqin şaroitda öqitiş pragmatik könikmalarning tezroq va mustahkamroq şakllanişiga olib keladi. Tadqiqot doirasida surdotarjimonlik ta’limiga moslaştirilgan yettita innovatsion texnologiya tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval. Innovatsion texnologiyalar va ularning pragmatik kompetensiyaga ta’siri

Texnologiya	Pragmatik kompetensiyaga asosiy ta’siri	Özlaştiriş körsatkiçi, %
Pragmatik kompetensiyani şakllantiriş texnologiyasi	Madaniy va pragmatik bilimlarni uyğunlaştiriş	85,3
Rol öyinlari va simulyatsiya	Kommunikativ vaziyatlarni modellaştiriş	83,7
Hamkorlikdagi ta’lim	Empatiya, muloqot, jamoaviy işlaş	81,2
Muammoli ta’lim (PBL)	Tanqidiy tahlil, mustaqil yeçim topiş	78,4
Keys-stadi	Kontekst tahlili, etik qarorlar	76,8
Loyiha asosidagi ta’lim	Amaliy könikmalar, ijtimoiy javobgarlik	72,1
Raqamli texnologiyalar	Öz-özini kuzatiş, mustaqil örganiş	69,5

Muammoli ta’lim L.S.Vigotskiyning yaqin rivojlaniş zonasi va D.Kolbning tajribaviy örganiş sikli nazariyalariga tayanadi [6]. N.A.Muslimov tadqiqotida PBL muntazam qöllangan guruhlarda talabalarning mustaqil fikrlaş körsatkiçi 42 foizga, pragmatik muammolarni hal qiliş könikmasi esa 38 foizga oşgani qayd etilgan [1]. Hamkorlikdagi ta’lim (D.W.Johnson va R.T.Johnson) [8] qöllangan guruhda talabalarning empatiya körsatkiçi nazorat guruhiga nisbatan 33 foiz yuqori bölgan [9]. Rol öyinlari esa talabani real kasbiy bosimga oldindan tayyorlaydi («stress inokulatsiyasi»). Bu ayniqsa tibbiy va huquqiy vaziyatlarda işlaydigan surdotarjimon uçun muhim. Keys-stadi uçun tibbiyot, huquq, ta’lim va ijtimoiy xizmatlar sohalari böyiça 48 ta keys işlab çiqildi. Video yozuv va tahlil esa talabaga öz tarjimasidagi nonverbal xatolarni (gavda holati, yuz ifodasi, imo-işora maydoni) mustaqil aniqlaş imkonini beradi.

Pragmatik kompetensiyani şakllantiriş texnologiyasi. Tadqiqot doirasida işlab çiqilgan uşbu texnologiyaning ğoyasi şundan iboratki, pragmatik kompetensiya til bilimidan ajratilgan holda emas, doimo madaniy-ijtimoiy kontekst bilan integratsiyada rivojlantiriladi. Texnologiya J.L.Austinning nutq aktlari nazariyasi, H.P.Gricening muloqot maksimalari, D.Sperber va D.Wilsonning relevantlik nazariyasi hamda H.Baumanning «Deaf Gain» konsepsiyasi sintezi asosida yaratildi [10]. U spiral tartibda takrorlanadigan tört moduldan iborat: *madaniy tahlil* (karlar madaniyatining qadriyatlari va kommunikativ me’yorlari), *pragmatik tahlil* (nutq aktlari, implikatura, presuppozitsiya va ularning imo-işora tilidagi körinişlari), *integratsion amaliyot* (real va simulyatsion vaziyatlarda tarjima) hamda *refleksiv baholaş* (portfel, tengdoşlar va öz-özini baholaş). Eksperimental sinovda uşbu texnologiya eng yuqori natijani, ya’ni 85,3 foizlik özlaştiriş körsatkiçini berdi.

Pragmatik kompetensiyani şakllantiriş modeli. Model kompetensiyaviy, kommunikativ, madaniy-tarixiy va şaxsga yönaltirilgan yondaşuvlarga asoslanadi [1]. U tört özaro boğliq komponentdan iborat: *maqsadli*, *mazmuniy* (lingvistik-pragmatik, madaniy-kommunikativ, kasbiy-etik, strategik-texnik va refleksiv bloklar), *faoliyatli* va *natija-baholaş*. Model tört bosqiçda amalga oşiriladi: motivatsion-yönaltiruvçi, bilimlarni şakllantiruvçi, amaliyot va könikmalarni rivojlantiruvçi hamda refleksiya va integratsiya bosqiçlari. Pragmatik kompetensiyaning tört darajasi belgilandi: *adaptiv* (1-kurs), *reproduktiv* (2-kurs), *reproduktiv-produktiv* (bitiruv kurslari) va *ijodiy* (kasbiy faoliyat çöqqisi).

Diagnostika tizimi. Pragmatik kompetensiyani baholaş uçun beşta mezon va ularning uluşi aniqlandi: motivatsion-qadriyatli (15%), kognitiv (20%), kommunikativ-faoliyatli (35%), refleksiv-baholaş (20%) va madaniyatlararo sezgirlik (10%). Oxirgi mezon surdotarjimonlik kasbiga xos bölib, RID (AQŞ), NRCPD (Buyuk Britaniya) va NAATI (Avstraliya) kabi xalqaro tizimlarda alohida ajratilmagan. Diagnostika uçta vosita orqali amalga oşiriladi: 45 savoldan iborat köp ölçamli anketa (KÖA; Kronbax alfa koeffitsiyenti 0,82), 30 ta kommunikativ ssenariydan taşkil topgan vaziyatli pragmatik kompetensiya testi (VPKT) va tört qismli amaliy tarjima sinovlari majmuasi (ATSMj; ikki baholovçi tizimi,

Koen kappa koeffitsiyenti ≥ 0,70). Baholaş diagnostik, formativ (reytingning 40%) va summativ (60%) bosqiçlardan iborat. Natijalar Student t-testi, Mann-Uitni U-testi va Koen d ta’sir kuçi körsatkiçi yordamida statistik qayta işlanadi.

Ötkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bölajak surdotarjimonlarning pragmatik kompetensiyasi murakkab, köp qirrali va uzoq muddatli jarayonda şakllanadi. Uni an’anaviy til öqitiş usullari bilan tölaqonli şakllantirib bölmaydi.

2. Innovatsion texnologiyalar içida pragmatik kompetensiyani şakllantiriş texnologiyasi (85,3%) va rol öyinlari (83,7%) eng yuqori samaradorlikni körsatdi. Yettita texnologiyaning yaxlit tizim sifatida qöllanilişi sinergik ta’sir beradi.

3. Işlab çiqilgan tört komponentli model va beş mezonli diagnostika tizimi milliy kontekst, özbek imo-işora tili hamda xalqaro tajribani uyğunlaştiradi va kelajakda milliy sertifikatsiya tizimiga asos bölişi mumkin.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilar taklif etiladi: oliy ta’lim muassasalarining eşitişda muammosi bölgan şaxslar jamiyatlari va maxsus ta’lim muassasalari bilan hamkorlik memorandumlarini tuzişi; öquv jarayonida raqamli va jonli faoliyat nisbatini taxminan 30–40% va 60–70% darajasida saqlaş; modelni bosqiçma-bosqiç (pilot, kengaytiriş, milliy tatbiq) joriy etiş.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., Törayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Sano standart», 2015.

2. Leeson L. Making the effort in simultaneous interpreting: Some considerations for signed language interpreters // Topics in Signed Language Interpreting: Theory and Practice / Ed. by T. Janzen. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 2005. – P. 51–68.

3. Cokely D. Shifting positionality: A critical examination of the turning point in the relationship of interpreters and the Deaf community // Sign Language Interpreting and Interpreter Education: Directions for Research and Practice / Ed. by M. Marschark, R. Peterson, E.A. Winston. – Oxford: Oxford University Press, 2005.

4. Gish C.

5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

6. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984.

7. Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperation and Competition: Theory and Research. – Edina, MN: Interaction Book Company, 1989.

8. Bozorov O.Y.

9. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962.

10. Grice H.P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts / Ed. by P. Cole, J.L. Morgan. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.

11. Sperber D., Wilson D. Relevance: Communication and Cognition. – Oxford: Blackwell, 1986.

12. Bauman H-D.L. (Ed.) Open Your Eyes: Deaf Studies Talking. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 2008.

13. Abdullayeva N. O. Imo-ishora tillarining tasnifi // Kasb-hunar ta’limi. – 2024. – № 3.– B. 89–95.

14. Abdullayeva N. O. Og‘zaki nutqni rivojlantirishning pedagogik asoslari // Ilmiyuslubiy jurnal. – 2023. – № 6. – B. 72–78